

**OILADAGI AVLODLARARO MUNOSABATLARNING IJTIMOIIY – FALSAFIY
JIHATLARI****Mamarayemova Guljahon Farhodovna**

“Oila va gender” ilmiy – tadqiqot instituti doktaranti

Abstract: This article studies intergenerational relations in the family from a socio-philosophical perspective. It considers historical experience, the evolution of social institutions, the transformation of people, and the specific characteristics of generations in the modern world.

Keywords: family, intergenerational relations, social philosophy, ontology, epistemology, historicism, axiology, cultural heritage.

Аннотация: В статье рассматриваются межпоколенные отношения в семье с социально-философской точки зрения. В нем рассматривается исторический опыт, эволюция социальных институтов, трансформация людей и уникальные характеристики поколений в современном мире.

Ключевые слова: семья, межпоколенческие отношения, социальная философия, онтология, эпистемология, историзм, аксиология, культурное наследие.

Annotatsiya: Ushbu maqolada oiladagi avlodlararo munosabatlar ijtimoiy – falsafiy nuqtai nazardan o'rganiladi. Unda tarixiy tajriba, jtimoiy institutlarning evolyutsiyasi, insonlarning transformatsiyasi hamda zamonaviy dunyoda avlodlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: oila, avlodlararo munosabatlar, ijtimoiy falsafa, ontologiya, gnoseologiya, tarixiylik, akseologiya, madaniy meros.

Oila – jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutidir. Har bir insonning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy, estetik va madaniy qarashlari eng avvalo oilada vujudga keladi. Shu bois oiladagi avlodlararo munosabatlarni tahlil qilish orqali butun jamiyatdagi axloqiy-ijtimoiy muhitni anglash mumkin. Falsafa esa bu munosabatlarni tahlil qilishda chuqur, tizimli va universal yondashuvni taklif qiladi. Avlodlararo munosabatlar – bu o'zaro madaniy, axloqiy, hissiy, tajriba va qadriyatlar almashinuvi jarayonidir. Ota-onalar va farzandlar, bobo-buvi va nabiralar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat oilaviy barqarorlik, balki jamiyatning ma'naviy salomatligining ham ko'rsatkichi hisoblanadi. Falsafa bu munosabatlarni zamon va makon doirasida o'zgaruvchan, dinamik tizim sifatida ko'radi. Immanuel Kant fikricha, insonni axloqiylikka o'rgatish mumkin bo'lgan eng samarali joy – bu oiladir. Hegel esa oilani “axloq va ruhning ilk shakli” deb ta'riflaydi, bu esa oilaning jamiyatdagi o'rnini falsafiy jihatdan chuqurroq o'rganishni ko'rsatadi. Har bir jamiyat o'z madaniy qadriyatlarini avloddan avlodga o'tkazish orqali o'zligining davomiyligini ta'minlaydi. O'zbek jamiyatida “Kattalarga hurmat”, “kichikka izzat ko'rsat” kabi qadriyatlar



avlodlararo muloqotning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Sharq falsafasida oila – bu nafaqat qon-qarindoshlik, balki ma'naviy jipslik timsolidir. Forobiy, Ibn Sino, Ahmad Yassaviy kabi mutafakkirlar oilaviy tarbiyani inson kamolotining asosi deb hisoblagan. Ayniqsa, Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida bu jihat yaqqol ko'rinadi. Forobiy qarashlariga ko'ra, har bir inson axloqiy fazilatlarini oilada shakllantiradi va ushbu fazilatlar keyinchalik fozil jamiyatga xizmat qiladi. Shuning uchun oila iqtisodiy, biologic birlik bo'lishi bilan birga axloqiy – tarbiyaviy maktab hisoblanadi. Bugungi global dunyoda yoshlar g'arbona hayot tarzi, texnologiyalar va yangicha qadriyatlar ta'siriga tushmoqda. Bu esa oila ichidagi an'anaviy munosabatlarga to'qnash kelib, ziddiyatlar kelib chiqishiga olib kelyapti, ya'ni zamonaviy yoshlarning g'arbona ta'sir ostiga tushib qolishi, ular bilan oilaviy qadriyatlari o'rtasida fikrlar to'qnashuvini yuzaga keltiradi, bu ko'plab oilalarda nizo va kelishmovchiliklarga sabab bo'lmoqda. Keksalar internet va smartfonlardan foydalanishda qiynalyotgan bo'lsa, yoshlar asosiy muloqot vositasi sifatida raqamli platformalarni tanlaydi.

O'zbek xalqining mentaliteti – oilaning muqaddasligini, bobo-buvilar hurmatini birinchi o'ringa qo'yadi. Bayramlarda avlodlar yig'ilishi, katta yoshdagilarning duosini olish - bu qadriyatlar oiladagi rishtalarni mustahkamlaydi. Shuningdek, Islom dini avlodlararo hurmat va mehr-oqibatli bo'lishni ta'kidlaydi.

Avlodlararo munosabatlar har qanday jamiyatning ichki barqarorligini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy-madaniy mexanizmlardan biridir. Ular insonning shaxs sifatida shakllanishida, qadriyatlar tizimini egallashida, tajriba almashinuvida va madaniy merosni davom ettirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Falsafa bu munosabatlarni umumiy nazariy mezonlar asosida ko'rib chiqadi, ular inson tabiatining mohiyati, qadriyatlar uzluksizligi, axloqiy pozitsiyalar va tarixiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq.

Falsafaning ontologik kategoriyalari mavjudlik va vaqt tushunchasi orqali avlodlararo bog'liqlikni anglashga ko'maklashadi. M. Haydeggerning “Dasein” (insoniy mavjudlik) tushunchasi bu yerda muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, inson mavjudligi tarixiy va vaqtli bo'lib, u o'zidan oldingi va keyingi avlodlar bilan “mavjudlik doirasi”da bog'lanadi. Aksiologiyada qadriyatlar shaxsiy va jamiyat uchun eng muhim me'yorlardir. Avlodlararo munosabat qadriyatlarning uzluksizligini ta'minlovchi mexanizmdir. Konfutsiy falsafasida bu holat “x孝” (xiao) tushunchasi orqali izohlanadi, ya'ni “ota-onaga sadoqat” – jamiyat barqarorligining asosi hisoblanadi. Konfutsiyni fikriga ko'ra, keksa avlod tajribasi va qadriyatlari yosh avlodning axloqiy komillikka yetishida tayanchdir. Nietzsche esa bu holatga qarama-qarshi nuqtai nazardan qaraydi. U “eski qadriyatlar inqirozi” haqida yozadi va yangi avlod qadimiy me'yorlarni rad etib, o'z yo'lini topishi kerak, deya ta'kidlaydi. Shunday bo'lsa-da, bu yondashuv ijtimoiy ziddiyatlar manbai bo'lishi mumkin.

Falsafada gnoseologiya - bu bilish nazariyasi. Avlodlararo munosabatlar esa bilim va tajribaning nasldan-naslga o'tishini anglatadi. Ibn Sino o'zining “Kitob ash-shifo” asarida



bilish jarayonining bosqichlarini tahlil qiladi va bu bilimlar jamiyat orqali, ayniqsa, oila doirasida uzatilishini ta'kidlaydi. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar yoshlar va keksalar o'rtasidagi “bilish tafovutini” kuchaytirayotgan bo'lsa-da, bu tafovut muloqot va o'zaro o'rganish orqali bartaraf etilishi mumkin. Etika, ya'ni axloq falsafasi, avlodlararo munosabatlarda eng muhim nazariy zamin hisoblanadi. I. Kantning - “insonni hech qachon vosita sifatida emas, maqsad sifatida ko'r” – tamoyiliga asoslanib, keksa avlodga nisbatan hurmat, g'amxo'rlik va mas'uliyat yoshlar zimmasida axloqiy burch sifatida belgilanadi. Sharq tafakkurida, xususan, Baxouddin Naqshband tariqatida “yoshlar keksalarga xizmat qilishi kerak” degan ruhiy-axloqiy tamoyil mavjud bo'lib, bu oila va jamiyatdagi uyg'unlik garovidir.

Falsafiy nuqtai nazardan, tarixiylik insoniyat taraqqiyotining asosiy omilidir. Avlodlararo munosabatlar orqali jamiyat o'z tarixiy identitetini saqlab qoladi. A. Toynbeening sivilizatsiyalar nazariyasiga ko'ra, har bir jamiyat avlodlar almashuvi orqali madaniy merosni yangi kontekstga olib o'tadi. Agar bu uzviylik uzilsa, sivilizatsiya inqirozga yuz tutadi. Avlodlararo munosabatlar shunchaki ijtimoiy muomala emas, balki ularning falsafiy ildizlari chuqur va murakkab. Ontologiya orqali mavjudlik uzviyligi, aksiologiya orqali qadriyatlar almashuvi, gnoseologiya orqali bilim uzatish, etika orqali mas'uliyat va hurmat, tarixiylik orqali madaniy xotira barpo bo'ladi. Har bir jamiyat bu elementlarni uyg'unlashtirgan taqdirdagina barqaror rivojlanishga erishadi. Bugungi kunda zamonaviylik bilan an'anaviylikni uyg'unlashtirish, texnologiyalar ta'sirida yuzaga kelayotgan avlodlararo tafovutlarni ijobiy yo'nalishga burish, falsafiy yondashuvlar asosida tizimli qarashlarni talab etadi.

Avlodlararo munosabatlar milliy madaniyatni rivojlantirishda muhim tamoyil bo'lib, u o'zaro hurmat, bilim almashinuvi va madaniy merosni saqlash orqali amalga oshiriladi. Avlodlararo munosabatlar va ularning milliy madaniyatni rivojlantirishdagi o'rni haqida yanada chuqurroq ko'rib chiqamiz. Avlodlar o'rtasida tajriba almashinuvi muhim ahamiyatga ega. Katta avlodlar o'z hayotiy tajribalari, muvaffaqiyatlari va xatolaridan saboq olish imkonini berishadi. Yosh avlodlar esa yangi g'oyalar, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalar bilan katta avlodlarni tanishtiradilar. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib, har bir avlod o'zaro o'rganadi va rivojlanadi. An'anaviy san'at va madaniyat avlodlararo munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Katta avlodlar o'z madaniyatini, san'atini va urf-odatlarini yosh avlodlarga o'rgatish orqali ularni saqlab qolishadi. Bu jarayonda folklor, musiqa, raqs va boshqa san'at turlari ham muhim ahamiyatga ega. Yosh avlodlar esa bu an'analarni yangilab, o'z ijodiy yondashuvlarini qo'shib, yangi shakllarini yaratishlari mumkin. Avlodlararo munosabatlar milliy identitetni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Katta avlodlar o'z tarixiy va madaniy meroslarini yosh avlodlarga yetkazish orqali ularning milliy ongini rivojlantiradilar. Bu jarayon, o'z navbatida, milliy birlikni mustahkamlashga yordam beradi va avlodlar o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi. Zamonaviy texnologiyalar avlodlararo muloqotni



osonlashtiradi. Ijtimoiy tarmoqlar va internet orqali yoshlar katta avlodlar bilan bog'lanib, o'z fikrlarini, g'oyalarini va tajribalarini baham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu, o'z navbatida, avlodlar o'rtasida muloqotni kuchaytiradi va madaniy almashinuvni rag'batlantiradi. Yosh avlodlar ijtimoiy faollik ko'rsatish orqali avlodlararo munosabatlarni rivojlantirishi muhim. Ular ijtimoiy muammolarni hal qilishda, jamiyat rivojida ishtirok etishda katta avlodlarga yordam berishlari mumkin. Bu jarayon ijtimoiy birlashuvni kuchaytiradi va avlodlar o'rtasida o'zaro hurmatni mustahkamlaydi. Avlodlararo munosabatlar madaniy merosni saqlash va rivojlantirishga yordam beradi. Katta avlodlar o'z madaniyatlarini, urf-odatlarini va tarixini yosh avlodlarga yetkazish orqali ularni saqlab qolishadi. Yosh avlodlar esa bu merosni yangilab, o'z ijodiy yondashuvlari bilan rivojlantirishlari mumkin. Avlodlararo munosabatlar o'zaro hurmat va tushunish asosida qurilishi kerak. Katta avlodlar yoshlarning fikrlarini va g'oyalarini e'tiborga olishlari, yoshlar esa katta avlodlarning tajribasini hurmat qilishlari zarur.

Foydalanilgan dabiyotlar ro'yhati

1. Jo'rayev, N. “G'oyaiy immunitet yoki ma'naviy xaloskorlik tuyg'usi”. –Toshkent.: “O'zbekiston”, 2001 – b 64.
2. Kant I. Groundwork of the Metaphysics of Morals. – London.: Cambridge university press, -1998. -p120.
3. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. – Boston.: Beacon Press, 1984. – p 562.
4. Hegel F. Philosophy of Right(translated by S.W. Dyde)- Canada.: Kitchener, -2001. – p 281.
5. Heidegger. M. “Sein und Zeit”. -Niemeyer Verlag, -1967. –p 450.
6. Pew Research Center. “Generation Gap in Values” (2021)
7. UNESCO. Family Communication and Intergenerational Socialization (2020)
8. Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar.(darslik) –T.: “Akademiya”, -2005